

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA
MULOQOTCHANLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH**

Muladjanova Gulchexraxon Abidjanovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muloqotdan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarning muloqotchanligi va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ma'naviy yetuk barkamol avlodni tarbiyalashda maktabdagи o'quv faoliyatining roli masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: muloqot, muloqotchanlik ko'nikmalar, nutq, bolalar nutqini rivojlantirish, o'quv faoliyati.

Аннотация

В данной статье освещается значение использования общения в развитии самостоятельного мышления у младших школьников. Также были затронуты вопросы развития у младших школьников навыков общения и самостоятельного мышления, а также роли учебной деятельности в школе в воспитании духовно зрелого гармоничного поколения.

Ключевые слова: общение, коммуникативные навыки, речь, речевое развитие детей, учебная деятельность.

Annotation

This article covers the importance of using communication in the development of independent thinking in students of a small school age. Issues of the role of educational activities in the school in the development of communicative and independent thinking skills of students of a small school age

and the upbringing of a spiritually mature harmonious generation were also discussed.

Keywords: communication, communication skills, speech, development of children's speech, educational activities.

Kirish

Bola kichik maktab yoshiga yetganda ularning bir-birlariga nisbatan munosabatlari yangicha mazmun kasb etadi. Bola ilgari ota-onasi, guruhdagi tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqotda bo‘lgan bo‘lsa, endi maktab o‘qituvchisi, sinf rahbari bilan ham muloqotda bo‘ladi. Bolalarda bu davrda mas’uliyat hissi shakllanadi. Shu o‘rinda, bolalarning maktabga tayyorgarligi masalasiga alohida to‘xtalib o‘tish joiz deb hisoblaymiz. Psixologiyada «7 yosh inqirozi» - deb yuritiladigan inqiroz davri mavjuddir. Bu davr bolaning o‘z «men»ligini tengdoshlari orasida tasdiqlashi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, 7 yoshda bolaning bilish jarayonlarida (sezgi, idrok, xotira, xayol, diqqat) sifat o‘zgarishlari sodir bo‘ladi. Boladagi bo‘linuvchan beqaror diqqat o‘rniga barqaror diqqat shakllana boshlaydi, xotirasi mustahkamlanadi, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Gohida 6 yoshli bolada mana shu sifat o‘zgarishlari yuz bermaganligi tufayli ularni maktabga qabul qilish jarayonida « maktabga tayyor emas», degan xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi[1]. Shu tufayli ota-onalar bolani maktabga berish chog‘ida albatta, mutaxassis maslahatini olishlari maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha yoshning yettinchi yilida bilan muomala uslubini pedagog bolalar xulq atvovidagi o‘ziga xos jihatlar, uning o‘z tengdoshlari va kattalar bilan o‘zaro muloqotga kirisha olish malakalariga qarab tanlaydi, tengdoshlari orasida jamoa bilan muloqot qilish jarayonida turli darajadagi qiyinchiliklarni his qiladigan o‘quvchilar bor: gipermuloqotchan (sergap) bolalar; sinf- dars holatidan qo‘rqadigan bolalar; javob berishga uyaladigan, shuning uchun hech narsani bilmaydigan yoki quloq solmayotgan o‘quvchi bo‘lib ko‘rinadigan bolalar. Ularning har biriga nisbatan o‘qituvchi sabr-toqat va xayrixohlik bilan turli xilda yondashishi kerak bo‘ladi. Tarbiyachi pedagogning tarbiyalanuvchilari bilan

avtoritar uslubda ish olib borishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, unga nisbatan mehribonlik bilan ijobiy munosabatda bo'lishi o'ta muhimdir. Tarbiyachining bolaga munosabati faqat uning aniq muvaffaqiyati evaziga bo'lmasligi kerak[2].

Bolalar nutqining o'sishida ularning maktabda o'qishi katta rol o'ynaydi. Bola maktabgacha yoshda o'ylamasdan gapiradi, maktabda esa bola gaplashayotgan til o'qitiladigan va o'rganiladigan ilm bo'lib qoladi. Grammatikani o'qib o'rganish jarayonida bola nutqining fonetik jihatni to'g'ri bo'lib boradi, nutqning sintaksis tuzilishi takomillashadi. Maktabda o'qitilayotgan hamma fanlarni o'rganish jarayonida o'quvchi nutqining lug'ati boyiydi, so'zlarning mazmuni chuqurlashadi va kengayadi [3].

Bolalarning yozma nutqni egallashlari ular nutqining o'sishida muhim bosqich bo'ladi. Bola o'z fikrlarini yozma nutqda bayon qilishga harakat qiladi. O'quvchi o'qituvchining topshirig'iga binoan yozma ishlar bajarayotganda o'zining shu ishiga baho berilishini, o'z fikrining qanday til bilan bayon qilinganiga qarab baho berilishini oldindan bilib turadi. O'quvchi maktabda berilgan topshiriqni tayyorlash vaqtida shu topshiriqni o'ziga - o'zi gapirib berishni mashq qilib turishi o'quvchi nutqining o'sishiga katta tahsir qiladi. Bolalar nutqining o'sishida tarbiyachining nutqi katta ro'l o'ynaydi, chunki uning nutqi bolalar uchun namunali nutq hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi orqali yo'lga qo'yilgan zamonaviy boshlang'ich ta'lim uchun istiqbolli, ustuvor yo'nalishlardan biri bu shaxsni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash asosida rivojlantirishdan iboratdir, ya'ni har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan tarbiya jarayonidir. Bugungi kunda o'zida ta'lim-tarbiya elementlarini mujassamlashtirgan boshlang'ich ta'lim jarayonini tashkil etish dolzarb mavzulardan biridir. Kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitish va ularga

milliy hamda umuminsoniy tarbiya elementlarini singdirish yo‘li amaliy jihatdan tatbiq qilinishi lozim.

Z.A. Xolmatova “boslang’ich sinf o’quvchilarining o’zaro muloqot mavzulari doirasi keng, so’z zahiralari nihoyatda boy bo’lsa-da, ularda dialogga kirishish ko’nikmlari yetarlicha shakllanmagan. Buni ayniqsa boslang’ich sinf o’quvchilari muloqotida munozara tarzidagi dialoglar vujudga kelganda yaqqol ko’rish mumkin”[4], deb ta’kidlaydi.

X.A. Yulbarsova o’z tadqiqotlarida “nutq bir vaqtning o’zida qandaydir ma’lumotning manbai vazifasini bajarishi, shu bilan bir qatorda, o’z suhbatdoshiga ta’sir ko’rsatish jarayonini to’liq tavsiflash uchun faqat kommunikativ akt strukturasini bilish kamlik qiladi”[5] deb izohlaydi.

Natijalar

O‘quv materiallari shaklida berilgan ta’limiy matnlarda o‘quvchilarda turli shakllarda axloqiy – ma’naviy tarbiya va milliy nafosat me’yorlarini, diniy hamda umuminsoniy qadriyatlarni singdirish nazarda tutiladi. Shunga ko‘ra kichik muktab yoshidagi o‘quvchilarda muloqotchanlik ko’nikmalarini shakllantirishda quyidagi vazifalarni ta’lim jarayoniga tadbiq qilish muhimdir:

- kichik muktab yoshidagi o‘quvchilarda muloqotchanlik ko’nikmalarini rivojlantirishning diagnostik vositalari ishlab chiqish;
- kichik muktab yoshidagi o‘quvchilarda muloqotchanlik ko’nikmalarini rivojlantirishga doir darsdan tashqari mashg’ulotlar dasturi ishlab chiqish;
- kichik muktab yoshidagi o‘quvchilarda muloqotchanlik ko’nikmalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmi takomillashtirish.

Muhokama

Boshlang’ich ta’lim mazmuni istiqbolda konkretlashtirishni nazarda tutganda ta’lim vositalari alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quv jarayonining “bilim” komponenti bunda muhim rol o‘ynaydi. Bilim komponenti esa “rivojlanish” komponenti asosida shakllanadi. “Rivojlanish” komponenti. Rivojlanish” butun

o‘quv jarayonining asosiy tarkibiy qismidir. Bu boshlang‘ich maktabda o‘qish darslari uchun nimani anglatadi? Eng avvalo, o‘qish fanida bunga o‘zgarishlar kiritilishni nazarda tutadi, ya’ni fanning mohiyatini, uslub va metodlarini takomillashtirish demakdir. Shuni ham ta’kidlash kerakki, bunday rivojlanish bosqichi o‘z ichiga mustaqil shug‘ullanishni ham qamrab oladi. Ikkinchidan, kitoblardan kerakli ma’lumotlarni (bosma va ekran matni) olishga qodir, olingan bilimlarni amaliyatda qo‘llay oladigan barkamol kitobxonni shakllantirish adabiy o‘qishning ajralmas qismiga aylanadi. Shu bilan birga, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida o‘qish qobiliyatini shakllantirish savodxonlikni o‘rgatish davrida (o‘qish darslarida), o‘qish texnikasini shakllantirish jarayonida boshlanadi. Birinchi bosqichda texnologiyadan foydalanish, turli kitob formatlarida, jumladan, ekran formatlarida (vizual ravishda) taqdim etilgan badiiy adabiyotni o‘qish imkoniyatlari haqida gapirar ekanmiz, bizning fikrimizcha, bolalar o‘qishining hech qanday turi va usullaridan voz kechmaslik kerakligini yana bir bor ta’kidlaymiz. “Ko‘pchilik tomonidan rad etilgan bolalar kitoblarining elektron versiyasini taqiqlash emas, balki o‘qishning har xil turlari va shakllarini mohirona uyg‘unlashtirish lozim. Shunda kattalarning bevosita ishtiroki bolaning barkamol shaxsini shakllantirishga xizmat qiladi” [6]

Xulosa

Xulosa qilib aytganda pedagoglar bolalarga kichik maktab yoshidan boshlab turli muloqot shakllarini qo‘llagan holda og‘zaki va yozma nutqni o‘stirish bilan birga nutq madaniyatini va muloqotga kirishishni ham o‘rgatib borishlari zarur hisoblanadi.

Kichik maktab o‘quvchilarida kommunikativ madaniyatni rivojlantirish boshlang‘ich mактабнинг muhim muammolaridan biridir, chunki boshlang‘ich mактаб yoshida kommunikativ madaniyatni rivojlantirish bolalarga o‘z imkoniyatlarini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda pedagogika fani rivojlanishining hozirgi

bosqichida “kommunikativ madaniyat” tushunchasi “kommunikativ mahorat” tushunchasi bilan bog‘lanib, uning shakllanish yo‘llari psixologik-pedagogik va uslubiy asarlarda bayon etilgan.

Ushbu muammoni o‘rganish, ayniqsa, muhimdir, chunki boshlang‘ich maktab yoshida bolalar nutqi hali ham shakllanmaydi, aynan shu davr shaxsning axloqiy fazilatlarini, shu jumladan, muloqot madaniyati va uning tarkibiy qismlarini, madaniy xulq-atvor ko‘nikmalarini va qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulaydir. Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida kommunikativ madaniyatni rivojlantirish muammozi o‘quv jarayonini ham, tarbiya jarayonini ham o‘z ichiga olgan ta’lim jarayonida hal qilinadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Исмоилов, Ш. О. У., & Ахмедова, М. М. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ОСНОВНЫХ АСПЕКТОВ СОВРЕМЕННОЙ ПРОЗЫ ВО ВРЕМЯ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. *Science and Education*, 1(4).
2. Ahmedova, M. M. (2019). THE ROLE OF ARTISTIC DETAILS IN MODERN UZBEK LITERATURE (ON THE EXAMPLE OF A. YULDASHEV'S WORK). In EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY (pp. 39-43)
3. Ахмедова, М. (2020). ИЗУЧЕНИЕ ПРОБЛЕМ СРАВНИТЕЛЬНОГО ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ. *Review of law sciences*, (2).
4. Z.A. Xolmatova Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dialogga asoslangan munosabatlar madaniyatini shakllantirishning didaktik shart-sharoitlari. Avtoreferat. P. f. b. f. d (PhD). Namangan-2019.
5. X.A. Yulbarsova Integrativ yondashuv asosida bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Avtoreferat. P. f. b. f. d (PhD). Namangan-2019.

6. Хатамова, Д., & Мохигул, А. (2021). Тил ва сўзнинг фарқи. Общество и инновации, 2(5/S), 246-249.